

VATANPARVARLIK INSON IRODASINING MAHSULI

Jabborov Elbek Eshpo`latovich

O`zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada vatanparvarlik milliy iroda bilan chambarchas bog`langanligi, bular bir-birini to`ldirsagina shaxs ma`naviyati yetuk hisoblanishi va iroda orqali inson yuksalib, ichki sobit tuyg`ulari mukammallashib, hayotdagi mo`ljallari rang-baranglashib borishi haqida so`z borgan.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, ma`naviyat, iroda, instinkt.*

Vatanparvarlik milliy iroda bilan chambarchas bog`langandir. Bular bir-birini to`ldirsagina shaxs ma`naviyati yetuk hisoblanadi. Vatanparvarlik insondan kuchli irodani talab etadi. Insonning xulq-atvori, mehnati, yaratuvchiligi, ijodkorligi – bular hammasi uning irodasining yuzaga chiqishi bilan bog`liq. Iroda insonning amalga oshirajak ishlarini yuzaga chiqishida unga yordam beruvchi kuch sifatida namoyon bo`ladi.

Iroda orqali inson yuksalib, ichki sobit tuyg`ulari mukammallashib, hayotdagi mo`ljallari rang-baranglashib boradi.

Irodasiz vatanparvarlik yuzaga chiqmaydi. Chunki iroda insonning erkin tanlash asosida harakat qilishidir, ya`ni uning yaratuvchiligidir. Iroda insonni olamga, tevarak-muhitga, vaziyatga nisbatan faol bo`lishini, tegishli qaror qabul qilishini va uning asosida zarur ishni amalga oshirishni bildiradi. Iroda ong va tafakkur kabi faqat insonga xosdir. Hayvonlarda iroda yo`q, iroda bo`lmaydi. Chunki ular o`z oldiga maqsad qo`yib, unga erishish vosita va yo`llarini tanlay olmaydi. Faqat instinkt asosida harakat qiladi. Iroda yaratuvchi kuch sifatida ma`naviyatning uzviy qismidir.

Ma`naviyat orqali iroda vatanparvarlik, insonparvarlik kasb etadi. Insonning botiniy kuchini aniq maqsadga yo`naltiradi. Hayot so`qmoqlaridan o`tish paytida boshqa yo`llarga kirib ketishini oldini oladi. Inson irodasini har jihatdan tarbiyalaydi. Ma`naviyatsiz iroda zaif, amaliy jihatdan o`zgaruvchan, irratsionallik kasb etadi.

Demak, iroda bu – insonning o`z oldiga qo`ygan aniq maqsadiga erishish yo`lida yuzaga keladigan turli qiyinchilik va sinovlarni yengib o`tish faoliyatini ongli qo`yilgan maqsadga bo`ysundirish qobiliyatidir.

Iroda insonga o`zligini anglashga, kelajak sari intilishga, yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga hamda tub manfaatlarini yuzaga chiqarishga kuchli ta`sir etadi. Iroda tafakkurdan keskin farq qiladi. Unda xohish-istak emas, balki qat`iyatlilik, vaziyatga qarab tezda qaror qabul qilish xosdir. Mardlik, jasurlik, dovyuraklik, qat`iyatlilik va boshqa tushunchalar irodaga xos tushunchalardir. Bu tushunchalar irodaga kuch bag`ishlab, maqsadga erishishda unga hamroh bo`ladi. Maqsadga intilish irodaning mavjudlik shaklidir. Maqsad bor joyda iroda yuzaga chiqadi. Maqsadga erishishda yuzaga keladigan

muvofaqqiyatsizlikni yengib o'tishda iroda insonga ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, insonda muvofaqqiyatsizliklarga, turli yot g'oyalarga qarshi kurashda immunitet vazifasini o'taydi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan jamiki ma'naviy va moddiy boyliklar, qadriyatlar irodaning mahsulidir. Har bir ijodkor o'z ijodi mahsulini iroda orqali yaratadi va namoyon etadi. Bilish irodaning shakllanishiga yordam beradi, lekin bevosita shakllantirmaydi.

Har bir insonda individual tarzda iroda mavjud. O'qishga, ishga va kundalik turmushga oid maqsadlarimizni amalga oshirishda barchamiz irodaga duch kelamiz. Irodasi kuchli insonlarga o'qishning turli qiyinchiliklariga bardosh berib, ilm olishga intiladi. Ishdagi ko'ngilsizliklardan, muvofaqqiyatsizlikdan o'zini yo'qotib qo'ymasdan o'z oldiga qo'ygan maqsad sari intiluvchi, turmush qiyinchiliklaridan esankiramasdan undan chiqib ketish yo'lini topa biluvchi shaxslarni irodasi kuchli shaxslar deyish mumkin.

Ishyoqmaslik, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'ziga ishonmaslik kabi kamchiliklar irodani zaiflashtiradi. Irodasi zaif inson hayotga yengil-yelpi qaraydi. O'zi mehnat qilib kun kechirishdan ko'ra, tayyor mahsulotni qabul qilishni istaydi. Bunday insonlarda ekstremal vaziyatlarda vataniga qarshi bo'lsada xavfsiz yo'lni tanlash hissi kuchli bo'ladi, ongu shuurini, vujudini qo'rquv egallab, xoinlikka undaydi. Irodasi va tafakkuri zaif insonlarni yo'ldan ozdirish ham oson kechadi. Dinning asl mazmun- mohiyatini anglamagan holda ayrim yoshlarning diniy ekstremistik guruhlar safiga qo'shilib, hattoki o'z vatani tinchligiga xavf tug'dirayotgani ham mustaqil fikrga ega emasligidandir. Buning sabablari ko'p, albatta. Lekin asosiy sabab ularning ma'naviyati yetarli darajada shakllanganligida, irodasining zaifligida, fikrlash qobiliyatining pastligidadir. Shuning uchun ham yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.

Bola vatanparvar bo'lib tug'ilmaydi. Vatanparvarlik hayot davomida tashqi va ichki omillar ta'sirida sekin-asta tarkib topib boradi. Yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda ularning ongiga bolaligidan vatanparvarlik tushunchasini singdirish, mehnat qilishga o'rgatishimiz, mehnat orqali ularda qunt bilan ishlay bilish qobiliyatini shakllantirishimiz darkor. Mehnat odamning irodasini chiniqtiradi va vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga sababchi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. A. Erkayev. QarDU xabarleri ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. Qarshi. 3/2015.
3. Erkayev A. Yangi O'zbekiston: milliy g'oya haqida o'ylar. – T.: “Ma'naviyat”. 2023, 101-b.